

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№3

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 69 sahifa.
2026-yil, mart

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	



IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI

Yangiboyev F.B.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarining investitsiya faoliyati, uning mazmun-mohiyati hamda iqtisodiy o'sishdagi o'rni tahlil qilinadi. Banklarning investitsion portfellarini shakllantirish tamoyillari, risklarni boshqarish mexanizmlari va investitsiya samaradorligini oshirish omillari yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish, kapital bazasini mustahkamlash va korporativ boshqaruvni takomillashtirish kabi yo'nalishlar asosida investitsiya faoliyatini rivojlantirishning amaliy yo'llari ishlab chiqilgan. Maqolada O'zbekiston bank tizimidagi islohotlar sharoitida tijorat banklarining investitsion salohiyatini kengaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, investitsiya faoliyati, investitsion portfel, risklarni boshqarish, moliyaviy instrumentlar, raqamli transformatsiya, kapital bozori, investitsiya siyosati, iqtisodiy o'sish, bank islohotlari.

Abstract. This article analyzes the investment activity of commercial banks, its economic essence, and its role in promoting economic growth. The principles of forming banks' investment portfolios, risk management mechanisms, and factors influencing investment efficiency are examined. The study also explores practical approaches to enhancing investment activity through the implementation of digital technologies, the use of innovative financial instruments, strengthening the capital base, and improving corporate governance. In the context of ongoing banking reforms in Uzbekistan, scientific and practical recommendations are proposed to expand the investment potential of commercial banks.

Keywords: commercial banks, investment activity, investment portfolio, risk management, financial instruments, digital transformation, capital market, investment policy, economic growth, banking reforms.

Аннотация. В статье анализируется инвестиционная деятельность коммерческих банков, её экономическая сущность и роль в обеспечении экономического роста. Освещаются принципы формирования инвестиционного портфеля банков, механизмы управления рисками и факторы повышения инвестиционной эффективности. Рассматриваются направления развития инвестиционной деятельности на основе внедрения цифровых технологий, использования инновационных финансовых инструментов, укрепления капитальной базы и совершенствования корпоративного управления. В условиях реформирования банковской системы Узбекистана предлагаются научно-практические рекомендации по расширению инвестиционного потенциала коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, инвестиционная деятельность, инвестиционный портфель, управление рисками, финансовые инструменты, цифровая трансформация, рынок капитала, инвестиционная политика, экономический рост, банковские реформы.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan moliya-bank tizimining samaradorligiga bog'liq bo'lib, tijorat banklarining investitsiya faoliyati ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mavjud moliyaviy resurslarni iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirish, yangi loyihalarni qo'llab-quvvatlash, innovatsion ishlab chiqarishlarni moliyalashtirish hamda tadbirkorlik subyektlarining investitsion faolligini oshirishda tijorat banklari muhim o'rin tutadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda bank tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, ularning bozor tamoyillariga asoslangan faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytirish hamda xalqaro standartlarga mos boshqaruv tizimini joriy etish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar tijorat banklarining investitsion salohiyatini mustahkamlash, raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy o'sishdagi rolini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, global moliya bozorlaridagi o'zgarishlar, yangi raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda investitsiyaviy risklarning ortib borishi banklarning investitsiya faoliyatini yanada takomillashtirishni talab etmoqda. Banklar oldida investitsion portfelni diversifikatsiya qilish, zamonaviy moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanish, risklarni tizimli boshqarish va investitsiya jarayonlarini raqamlashtirish kabi dolzarb vazifalar turibdi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari investitsiya faoliyatining yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashi uzoq muddatda korxonalar raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Banklarning investitsiya faoliyati komissiya daromadlari hamda kreditlar bo'yicha foiz tushumlarini oshirish orqali ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi va diversifikatsiyalangan iqtisodiyot shakllanishiga ko'maklashadi.

Tijorat banklarining investitsiya faoliyati, uning mazmun-mohiyati hamda iqtisodiy o'sishdagi o'rni yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, xorijiy iqtisodchilar Yu. Morozkin va Ye. Svistunovalarning ta'kidlashicha, fond bozori kon'yunkturasining dinamik o'zgarib borishi sharoitida optimal qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish har doim ham banklar uchun yetarli bo'lavermaydi. Bozorning tebranishlarga boy muhitida tijorat banklari investitsion portfellarini boshqarishda takomillashgan strategiyalarni qo'llashi zarur [1]. Bunday strategiya fond bozori tendensiyalarini doimiy monitoring qilish, mavjud omillar asosida portfel tarkibiga o'z vaqtida tuzatishlar kiritish hamda investitsion qarorlarning aniqligi va dolzarbligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tijorat banklari investor sifatida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq keng ko'lamli operatsiyalarni amalga oshiradi. Ular qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish, ularni garov sifatida qabul qilib kreditlar ajratish, dividend va foiz to'lovlarini qabul qilish, emitent xo'jalik subyektlarining boshqaruvida ishtirok etish, shuningdek moliyaviy aktivlar va aksiyalarga investitsiya kiritish kabi operatsiyalarni bajaradi. Bu jarayonlar banklarning investitsion faoliyatini bozor mexanizmi, infratuzilma va institutsional omillar bilan uzviy bog'laydi [2].

E.V. Yakutina investitsiya munosabatlarida banklarning o'rni alohida ahamiyatga ega ekanini ta'kidlab, banklar turli vositalar orqali aholining bo'sh mablag'larini jalb qilib, ularni iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirish orqali ishlab chiqarish jarayonlarining rivojlanishi va iqtisodiy o'sishga xizmat qilishini qayd etadi. Demak, banklar milliy iqtisodiyotda investitsion resurslar harakatining asosiy uzatuvchi bo'g'ini vazifasini bajaradi [3].

A.V. Zverev, V.V. Mandron va M.Yu. Mishina moliyaviy institutlarning investitsiya siyosatini ishlab chiqishda asosiy maqsadlarni belgilash hamda ularga erishishning eng maqbul usullarini tanlash muhimligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, investitsiya faoliyatini boshqarish xavf va rentabellik o'rtasida optimal nisbatni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidan iborat bo'lib, bunda strategik va taktik boshqaruv elementlari muhim ahamiyat kasb etadi [4].

B.A. Rayzberg tijorat banklari investitsiyalarini uzoq muddatli samaradorlikka ega bo'lgan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish hamda ulardan qo'shimcha foyda olishga yo'naltirilgan iqtisodiy jarayon sifatida talqin etadi. Ushbu yondashuv banklarning investitsiya portfelini shakllantirishda barqarorlik va uzoq muddatli daromadlilik mezonlarini ustuvor qo'yishini anglatadi [5].

L.L. Igonina banklarning investitsiya faoliyatini iqtisodiy subyekt sifatidagi roli nuqtayi nazaridan baholab, banklar moliyaviy aktivlarni yaratish va sotib olish orqali bozorning ma'lum segmentlariga o'z resurslarini vaqtincha joylashtiruvchi investor sifatida faoliyat yuritishini qayd etadi. Bu jarayonda banklar kapital va jamg'armalarni jalb qilish orqali ulardan kelgusida samarali foydalanish imkoniyatlarini shakllantiradi [6].

Mahalliy iqtisodchi olim O'.A. Haydarov tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy hisobotlariga yetarli e'tibor berilmasligi, rasmiy hisobotlarda xo'jalik yurituvchi subyektlarning haqiqiy moliyaviy holati to'liq aks etmasligi banklarning investitsiyaviy qarorlariga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Bu holat banklarning investor sifatidagi ishonchini susaytirib, ayrim subyektlar uchun investitsiya imkoniyatlarini cheklashi mumkin [7].

K.R. Makkonnell va S.L. Bryu fond bozoriga quyidagicha ta'rif beradi: "Fond bozori kapital mablag'larini taklif etuvchilar va ularni xarid qiluvchilarni bir joyga jamlovchi institutdir" [8]. Demak, fond bozori mamlakat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida bo'sh pul mablag'larining harakatini ta'minlovchi mexanizm vazifasini bajaradi va qarz oluvchilarga kapital jalb etish imkonini yaratadi.

M.B. Xamidulin ilmiy tadqiqotlarida O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar chiqarish va joylashtirish orqali investitsiyalarni jalb etish uchun zarur sharoitlar mavjudligini ta'kidlaydi [9]. U fond bozorida tashkilotlarning nisbatan past faolligini bir nechta omillar bilan izohlaydi: birinchidan, birlamchi bozorda strategik ahamiyatga ega tashkilotlarning yetarli darajada jalb etilmasligi; ikkinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarida davlat ulushining



yuqoriligi; uchinchidan, ikkilamchi bozorda aksiyalarning likvidlik darajasining pastligi. Ushbu omillarni bosqichma-bosqich bartaraf etish fond bozori orqali investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

U.M. Aliev investitsiya muhitining yaxshilanishi korporativ obligatsiyalarning birlamchi va ikkilamchi bozordagi ulushini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi [10].

Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida investitsion faoliyati ko'p qirrali bo'lib, bankning strategiyasiga bevosita bog'liqdir. Banklar aksiyalar, obligatsiyalar, derivativlar va boshqa moliyaviy instrumentlarga sarmoya kiritish orqali nafaqat daromad olish, balki investitsion risklarni kamaytirish, portfelni diversifikatsiya qilish va bozor kon'yunkturasiga moslashuvchan boshqaruvni amalga oshirish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, banklar investitsiya jarayonida mijozlar portfelini boshqarish, konsalting xizmatlari ko'rsatish hamda fond bozorida moliyaviy operatsiyalarda ishtirok etish orqali iqtisodiyotning investitsiya muhitini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy mamlakatlarda milliy iqtisodiyotimizda tijorat banklari investitsion faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy sharoitda investorlar oldiga uchta asosiy vazifa qo'yiladi: kapitalni inflyatsiya ta'siridan himoya qilish, uni ko'paytirish hamda asoslangan investitsiyalar orqali barqaror daromadga erishish. Fond bozoriga yo'naltirilgan investitsiyalarni hisobga olganda, investitsiya daromadlarini to'liq passiv daromad sifatida baholash to'g'ri bo'lmaydi. Chunki tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirishdan avval kompaniya yoki uning aktivlarining moliyaviy holatini chuqur tahlil qiladi. Mazkur tahlil investitsion qarorlarning asoslanganligini ta'minlab, bank daromadlarining oshishiga xizmat qiladi.

Fond bozori — qimmatli qog'ozlar savdosi amalga oshiriladigan maydon bo'lib, unda tijorat banklari ma'lum moliyaviy aktivlarni tanlab, ularni xarid qiladi. Natijada bank investitsiya portfelida aksiyalar, obligatsiyalar, valyuta vositalari hamda boshqa moliyaviy instrumentlar shakllanadi.



1-rasm. Tijorat banklari investitsiya faoliyatining asosiy jihatlar¹

Tijorat banklarini moliyaviy xatarlardan himoya qilish hamda investitsiyalarni saqlab qolish yoki ularning o'sishini ta'minlash ehtiyojlarini moliyaviy aktivlar ro'yxatini kengaytirish orqali qondirish mumkin. Bunga fond bozori imkoniyatlaridan samarali foydalanish va uning institutsional rivojlanishini kuchaytirish orqali erishiladi.

Tijorat banklarining fond bozorida faoliyati ko'p qirrali bo'lib, ular emitent, investor hamda qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi sifatida faoliyat yuritadi. Qimmatli qog'ozlarni ishonchli


1 Muallif ishlanmasi.

boshqarish va brokerlik xizmatlarini ko'rsatish alohida ahamiyatga ega, chunki bu orqali bank fond bozorida investorlar uchun vositachilik funksiyasini bajaradi.

Tijorat banklarining iqtisodiy siyosatiga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillarning xilma-xilligiga qaramay, mijozlarga taklif etiladigan investitsiya shartlari bankning boshqaruv siyosati bilan bevosita bog'liq. Bankning aktiv-passiv operatsiyalarini uyg'unlashtirish mexanizmi chakana investorlarning fond bozoridagi moliyaviy mahsulotlarga bo'lgan qiziqishini hamda emitentlar (qarz oluvchilar)ning investitsiya resurslariga bo'lgan ehtiyojini qondiradigan maqbul moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Ushbu mexanizm tijorat banklarining fond bozoridagi anderrayter sifatidagi rolini yanada kuchaytiradi.

Moliyaviy mahsulot va xizmatlarni loyihalashda tijorat banklari uchun mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda banklarning investitsiya portfelini shakllantirish hamda uning rentabelligini baholashda keng qo'llaniladigan mashhur modellar mavjud bo'lib, ular quyida keltiriladi (2-rasm).



2-rasm. Banklarning investitsiya portfelini shakllantirish hamda uning rentabelligini aniqlash modellari²

Markovits modelida bir portfel tarkibidagi qimmatli qog'ozlarning rentabellik ko'rsatkichlari o'zaro bog'liq bo'ladi. Ayrim qimmatli qog'ozlar narxining o'sishi boshqa qog'ozlar qiymatining bir vaqtning o'zida o'sishi bilan kechishi mumkin. Shu bilan birga, uchinchi turdagi qog'ozlarda rentabellik o'zgarmasligi, to'rtinchi turdagi qog'ozlarda esa pasayish kuzatilishi ehtimoli mavjud. Ushbu o'zaro bog'liqlik korrelyatsiya deb ataladi va portfelni diversifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sharp modeli indeks modeliga asoslanadi. Sharp Markovits modelining hisob-kitob jihatidan murakkab tomonlarini soddalashtirishga intildi. U hisoblash jarayonini yengillashtirish maqsadida yagona bozor omilini (beta koeffitsientini) kiritdi hamda individual aksiyalar kurslarining bozor indeksiga bog'liqligidan foydalandi. Bu yondashuv portfel riskini baholashni soddalashtiradi va amaliy qo'llash imkoniyatini kengaytiradi.

Muvozanat narxlari modeli (Arbitrage Pricing Theory — APT)da asosiy ma'lumotlar sifatida odatda inflyatsiya darajasi, iqtisodiy o'sish sur'ati, foiz stavkalari kabi umumiy xavf omillari qo'llaniladi. Ushbu modelga ko'ra, kutilayotgan daromad bir nechta omillarga bog'liq bo'ladi. Oldingi modellar asosan umumiy bozor daromadiga tayanar edi, APT esa har bir omilning alohida ta'sirini hisobga oladi. Daromadlilik darajasi individual aksiyalarning iqtisodiy omillarga sezgirligiga qarab shakllanadi.

Kapital aktivlarini narxlash modeli (CAPM) esa investorlar xavfli investitsiyalarni tanlashda xavf-xatarsiz rentabellik stavkasidan yuqori daromad kutishiga asoslanadi. Mazkur modelga ko'ra, aktivning kutilayotgan daromadlilik ikki tarkibiy qismdan iborat: xavf-xatarsiz investitsiya bo'yicha daromad va tavakkalchilik aktiviga egalik qilish bilan bog'liq risk mukofoti. Ushbu yondashuv risk va daromad o'rtasidagi muvozanatni nazariy jihatdan asoslab beradi.

2 Muallif ishlanmasi.

1-jadval. Investitsiya faolligining oshishiga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlar tahlili³

Ko'rsatkichlar	Yillar					2023-yilda 2019-yilga nisbatan o'zgarishi (+, -)
	2019	2020	2021	2022	2023	
Yalpi ichki mahsulot	114,4	111,9	110,6	111,8	108	-6,4
Inflyatsiya darajasi	13	14,3	11,6	9,8	12,2	-0,8
Asosiy kapitalga investitsiyalar	138,1	95,6	102,9	100,2	123,4	-14,7
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hamda qurilish ishlari bo'yicha narxlar indeksi yillik dinamikasi	119	109,1	112,4	110,3	108,1	-10,9
Asosiy kapitalga investitsiyalarda bank kreditlari hamda boshqa qarz mablag'lari ulushi	13,8	7,6	8	6,6	3,8	-10
Ko'rsatilgan aloqa hamda axborotlashtirish xizmatlarining hajmi, mlrd. so'mda	10891,7	13852,3	17755,1	24508,1	35261,9	24370,2

Yuqorida keltirilgan 1-jadvalda 2019–2023-yillar davomida iqtisodiyotning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi aks ettirilgan bo'lib, ular tijorat banklarining investitsiya faoliyatiga bevosita ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi. Ma'lumotlar ko'rsatkichlar bo'yicha muayyan o'zgarishlar yuz berganini tasdiqlaydi va bu holat banklarning investitsion strategiyasini yanada takomillashtirish zaruratini kuchaytiradi.

1. Yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atining 6,4 foizgacha pasayishi iqtisodiy faollikning nisbatan sekinlashganini anglatadi. Bu holat tijorat banklarining investitsion loyihalarga bo'lgan talabiga ta'sir ko'rsatishi, kredit risklarining ortishiga olib kelishi hamda qimmatli qog'ozlar bozoridagi faollikni qayta ko'rib chiqishni talab qilishi mumkin. Shuningdek, iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi investitsiya portfeli sifatini oshirish maqsadida diversifikatsiya zaruratini yuzaga keltiradi.

2. Inflyatsiya darajasining 12,2 foiz atrofida shakllanishi investitsiya qarorlarida noaniqlik darajasini oshiradi. Inflyatsion tebranishlar bank resurslarining real qiymatiga ta'sir ko'rsatadi va uzoq muddatli investitsiyalar bo'yicha risklarni kuchaytirishi mumkin. Shu bois tijorat banklari investitsiya siyosatini shakllantirishda inflyatsion kutilmalarni hisobga olgan holda optimal aktivlar tanlashlari lozim.

3. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining 14,7 punktga qisqarishi real sektor investitsion talabining nisbatan kamayganini ko'rsatadi. Bu esa tijorat banklari tomonidan loyiha moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, investitsion loyihalarni baholash tizimini kuchaytirish va risklarni chuqurroq tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

4. Asosiy kapitalga investitsiyalar va qurilish ishlari bo'yicha narxlar indeksining 10,9 punktga pasayishi investitsiya muhitida narx barqarorligining nisbatan yaxshilanganini bildiradi. Biroq investitsiya loyihalarining tannarxiga ta'sir etuvchi bozor omillari saqlanib qolmoqda. Shu sababli banklar investitsion loyihalarni moliyalashtirishda narx risklarini batafsil tahlil qilishi zarur.

5. Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'larining investitsiyalardagi ulushining 13,8 foizdan 3,8 foizgacha kamayishi tijorat banklarining investitsion jarayonlardagi ishtiroki qisqarganini ko'rsatadi. Bu holat kreditlash shartlarining ehtiyotkorlik bilan olib borilishi, risklarni boshqarish siyosatining kuchaytirilishi yoki resurslar qiymatining o'zgarishi bilan izohlanishi mumkin. Shu bois investitsion kreditlash mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish, resurs bazasini kengaytirish va foiz siyosatini muvozanatli shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining sezilarli oshishi iqtisodiyotning raqamli sektorida jadal rivojlanish kuzatilayotganini bildiradi. Bu tendensiya tijorat banklari uchun yangi investitsiya yo'nalishlarini ochadi. Raqamli xizmatlarga talabning ortishi banklarning IT-infratuzilmasini modernizatsiya qilish, fintech loyihalariga sarmoya kiritish, elektron bank xizmatlarini kengaytirish hamda raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Umuman olganda, 1-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar 2019–2023-yillarda investitsiya faolligiga ta'sir ko'rsatgan bir qator makroiqtisodiy omillar mavjudligini ko'rsatadi. Bunday sharoitda tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi:

- investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish;
- risklarni baholashning zamonaviy modellari va reyting tizimlarini joriy etish;

3 <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

- real sektor investitsiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun kredit shartlarini optimallashtirish;
- raqamli texnologiyalar va innovatsion xizmatlar bozoriga faol kirish;
- resurs bazasini mustahkamlash va uzoq muddatli kapitalni jalb qilish.

Shunday qilib, tahlil natijalari tijorat banklarining investitsiya faoliyatini yanada takomillashtirish va investitsion strategiyalarni zamon talablariga mos ravishda yangilash zarurligini ko'rsatadi.

Tijorat banklari investitsiya portfelini shakllantirish, tahlil qilish, monitoring olib borish hamda uni oqilona boshqarish orqali tarkibini qayta ko'rib chiqadi va talab etilgan parametrlariga mos yangi investitsion sifat darajasiga erishadi. Ushbu jarayon umumiy ma'noda portfelni boshqarish deb ataladi. Investitsiya portfeli shunday moliyaviy instrumentki, uni samarali boshqarish orqali investor talablariga mos ravishda minimal risk darajasida barqaror va qoniqarli daromad ta'minlanadi.

2-jadval. Mamlakatimiz tijorat banklarining investitsiya portfeli tahlili⁴, foizda

№	Ko'rsatkichlar	Yillar 1-yanvar holatiga					2024 yilda 2020 yilga nisbatan o'zgarishi, (+,-)
		2020	2021	2022	2023	2024	
1.	Investitsiyalar hamda boshqa qimmatli qog'ozlar	1,2	2,6	4,4	5,7	5,0	3,8
2.	Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	1,3	3,1	2,8	2,3	2,4	1,1

Mamlakatimiz tijorat banklarining investitsiya portfeli tahlilidan ko'rinadiki, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 2020-yil 1-yanvar bilan taqqoslaganda investitsiyalar hamda boshqa qimmatli qog'ozlar hajmi 3,8 foizga, chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hajmi esa 1,1 foizga o'zgargan.

Shuningdek, investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar tijorat banklarining investitsiya portfelida nisbatan past ulushni egallaydi. Biroq kichik hajmga ega bo'lishiga qaramay, ular ijobiy o'sish tendensiyasini namoyon etgan.

Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar ham past ulushga ega bo'lib, 2020-yil 1-yanvar holatiga banklar investitsiya portfelining 1,3 foizini tashkil etgan. 2024-yil 1-yanvar holatiga esa ushbu ko'rsatkich 1,1 foiz punktga oshib, 2,4 foizni tashkil etgan.

Mazkur holatlar banklar investitsiya portfelida qimmatli qog'ozlar ulushini bosqichma-bosqich oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi. Bu yo'nalishda investitsiya siyosatini takomillashtirish, bozor instrumentlaridan samarali foydalanish hamda portfelni diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida tijorat banklarining investitsiya faoliyati, uning mazmun-mohiyati hamda iqtisodiyotdagi o'рни har tomonlama tahlil qilindi. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari zamonaviy iqtisodiyotni moliyalashtirishning muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib, ularning investitsion faolligi iqtisodiy o'sish sur'atlari, fond bozori holati, inflyatsiya darajasi va investitsiya muhitining barqarorligi bilan uzviy bog'liqdir.

Statistik tahlillar 2019–2023-yillarda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda muayyan tebranishlar kuzatilganini tasdiqladi. YIM o'sish sur'atlarining pasayishi, inflyatsiya dinamikasi, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining qisqarishi hamda investitsiyalarda bank kreditlari ulushining kamayishi banklarning investitsiya faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Tahlil natijalari tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish quyidagi strategik yo'nalishlarda jadallashtirilishi maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi:

- investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish, risklarni kamaytirish va bozor volatilligiga moslashuvchan javob qaytarish mexanizmlarini takomillashtirish;
- innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish — derivativlar, istiqbolli aksiyalar, obligatsiyalar hamda fintech asosidagi yangi investitsiya vositalarini keng joriy etish;
- raqamli transformatsiyani jadallashtirish, IT-infratuzilmani modernizatsiya qilish va bank xizmatlarining raqamli segmentini kengaytirish;
- sifatli investitsion loyihalar tanlovini kuchaytirish, moliyaviy hisobotlar tahlilini takomillashtirish hamda shaffof axborot tizimlarini joriy etish;

4 Muallif hisob-kitoblari (www.cbu.uz ma'lumotlari asosida).



· resurs bazasini mustahkamlash, uzoq muddatli investitsiya manbalarini kengaytirish va kredit resurslari samaradorligini oshirish;

· real sektor bilan banklar o'rtasidagi investitsion integratsiyani kuchaytirish, ishlab chiqarish, transport, energetika va IT kabi sohalarda istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish.

Umuman olganda, tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish zamonaviy iqtisodiy islohotlarning muhim tarkibiy qismi bo'lib, bank tizimi barqarorligini mustahkamlash, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va mamlakat investitsion salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Strategik boshqaruv, raqamli innovatsiyalar hamda diversifikatsiyalangan portfel siyosatini uyg'unlashtirish orqali tijorat banklari iqtisodiy o'sishning faol omiliga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Морозкин Ю.Н., Свистунова Е.С. Управление портфелем ценных бумаг в коммерческом банке // Вестник Челябинского государственного университета. — Челябинск, 2011. — № 6. — С. 138.
2. Боровкова В.А. Рынок ценных бумаг: учебное пособие. — 2-е изд., обновл. и доп. — СПб.: Издательский дом «Питер», 2021.
3. Якутина Э В. Инвестиции в банковской деятельности // Economics. — 2017. — № 5 (26). — С. 59–62.
4. Зверев А.В., Мандрон В.В., Мишина М.Ю. Инвестиционная деятельность и инвестиционная политика банковского сектора РФ // Вестник БГУ. — 2018. — № 3 (37).
5. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е. Б. Современный экономический словарь. — 6-е изд., перераб. и доп. — М.: ИНФРА-М, 2017. — 512 с.
6. Игонина Л.Л. Инвестиции. — М.: Магистр, 2014. — 752 с.
7. Haydarov O'.A. Milliy iqtisodiyot doirasida investisiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish: i.f.b.f.d. diss. — 2020.
8. Макконнелл К.Р., Брю С. Л. Экономикс. — М.: ИНФРА-М, 2003. — С. 62.
9. Хамидулин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления: автореф. дисс. ... докт. экон. наук. — Ташкент, 2008. — 37 с.
10. Алиев У.М. Пути совершенствования функционирования инфраструктуры рынка ценных бумаг: автореф. дисс. ... канд. экон. наук. — Ташкент: БМА, 2008. — 19 с.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100